O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
MATERIALLARI
(2024 yil 15 noyabr)



SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
MATERIALLARI
(2024 yil 15 noyabr)

SAMARQAND – 2024

UO‘K: 657.6-051:006
Sh 63
KBK: 65.053

Moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlar asosida o‘tkazishning nazariy, tashkiliy va metodologik masalalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2024 yil 15 noyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2024. – 434 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

U.A. Shirinov – PhD, Dotsent;
X.O‘. Po‘latov – katta o‘qituvchi;

Nashr uchun mas’ullar:

K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor;
M.Q.Pardaev – iqtisod fanlari doktori, professor;
S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor.

Mazkur kitob buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning nazariy va metodologik muammolari, soha sub’ektlarida auditning xalqaro standartlarini keng joriy qilish, jumladan moliyaviy hisobotni MHXSlari talablariga muvofiqlashtirish, “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish, buxgalterlar va auditorlarni xalqaro sertifikatlashtirish, korxona va tashkilotlarda auditni xalqaro standartlar asosida o‘tkazish, moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish, korxonalar faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar natijalari o‘rin olgan. Ushbu to‘plamda tadqiqot natijalari bo‘yicha olingan xulosa va takliflar iqtisodiyotimizning rivojlanishiga, buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro andozalar asosida tashkil etishga, ta’lim tizimini kredit-modul tizimiga o‘tkazishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavrlar, shuningdek korxonalar rahbarlari, buxgalterlar, auditorlarlar va boshqa mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Ilmiy to‘plam Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-702-29-7

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

UMIDOV D. U.	BOSHQARISH	
BOBOMURADOVA SARVINOZ ZIYADULLAYEVNA	SAVDO KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI TASHKIL ETISH	196
ESHONQULOV AKMAL QUDRATOVICH	PUL MABLAG‘LARI TUSHUNCHASI BUXGALTERIYA HISOBI OB’EKTI SIFATIDA TAVSIFI	200
BORONOV BOBUR FARXODOVICH ABDURASULOV JAMSHIDBEK AXMAD O‘G‘LI	OLINADIGAN SCHYOTLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH	205
D.S.TASHNAZAROVA	TANNARX BUXGALTERIYA HISOBINING KONSEPTUAL MASALALARI	208
RAXIMOV X.A.	MHXS ASOSIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH	212
U.N.NORMURODOV O.A.ABDUG‘ANIEV	CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING OB’EKTIV ZARURIYATI	216
ESHQURBONOV BAHROM	THE IMPORTANCE OF AUDIT EVIDENCE AND ADAPTING IT TO THE REQUIREMENTS OF THE DIGITAL ECONOMY	218
ABDUSAIDOV S.J.	SUG’URTA TASHKILOTLARIDA INVESTITSION FAOLIYATDAN OLINADIGAN DAROMADLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	221
RAXMANOVA YULDUZ SHARAFITDINOVNA	INVESTITSIYAVIY KO‘CHMAS MULK XALQARO STANDARTLAR TALQINIDA	222
M.X. XODJAEVA MAXMUDOVA R.A	UZOQ MUDDATLI INVESTISIYALAR BILAN BOG‘LIQ MUOMALALARNI AUDITORLIK TEKSHIRUVIDAN O‘TKAZISH	227
XOLPO‘LOTOV RUSTAM O‘KTAMOVICH	MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SHUBHALI DEBITORLIK QARZLARI BO‘YICHA REZERV TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	230
IV SHO‘BA. “RAQAMLI IQTISODIYOT” SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI SUB’EKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH		

fikrimizcha, dargumon qarzlar tushunchasi debitorlik qarzlarining barcha turlariga ta’luqlidir. Shu sababli, alohida satrda aks ettirish taklif etildi.

39-son MHXS “Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash”ga muvofiq, zaymlar va debitorlik qarzlari moliyaviy aktiv hisoblanadi. Debitorlik qarzlarini moliyaviy aktiv sifatida tan olishning asosiy talabi bo‘lib ularning faol bozorda kotirovka qilinmasligi bo‘lib hisoblanadi. Agarda aktiv faol bozorda kotirovka qilinsa, yoki debitorlik qarzlari va zaymlari sifatida tasniflashning boshqa talablariga javob bermasa, u holda debitorlik qarzlari “to‘lagunga qadar ushlab turiladigan investitsiya” sifatida tan olinadi.

Debitorlik qarzlarini moliyaviy aktiv sifatida savdo va nosavdo debitorlik qarzlariga tasniflash, debitorlik qarzlarini adolatli (haqqoniy) qiymatda va amortizatsiyalanadigan qiymatda baholash, debitorlik qarzlarining qadrsizlanishi natijasida zarar hamda buxgalteriya balansida sof qiymatda aks ettirish bo‘yicha berilgan takliflar debitorlik qarzlari (olinadigan schyotlar)ga oid axborotlarning ob’ektivligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

Debitorlik qarzlari (olinadigan schyotlar) qarzdor shaxslardan pul mablag‘larini va boshqa aktivlar ko‘rinishidagi qoplamalarni olishga bo‘lgan huquqidir, deb tavsiflanishi hamda shu bilan bir qatorda, ishda berilgan ta’rifga muvofiq ravishda savdo va boshqa (nosavdo) debitorlik qarzlariga tavsif berilishi ushbu tushunchalarning to‘g‘ri qo‘llanilishini hamda milliy standartlarda atamalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Buxgalteriya balansi shaklidagi debitorlik qarzlarini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish maqsadida shartnomaviy aktivlar tushunchasi kiritilganligi, savdo va nosavdo debitorlik qarzlarining tarkibi belgilanib chiqilganligi, dargumon qarzlar debitorlik qarzlarining barcha turlariga ta’luqligini hisobga olib unga balansda alohida satrda aks ettirish taklif etilganligi hisobotlarning shaffofligini oshirishga va xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Libby, Robert. Financial accounting /Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Irwin, Printed in USA, 2016. 308, 848 p.

2. Попова О.В. Учет дебиторской задолженности. https://gaap.ru/articles/uchet_debitorskoy_zadolzhennosti.

3. Аликина А.Д. Учет дебиторской задолженности. https://cyberleninka.ru/article/n/uchet-debitorskoy-zadolzhennosti.

TANNARX BUXGALTERIYA HISOBINING KONSEPTUAL MASALALARI

D.S.Tashnazarova – SamISI, doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada tannarxi buxgalteriya hisobining mohiyati, uning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Unda yoritiladigan asosiy masalalar va bugungi kunda Tannarx buxgalteriya hisobini joriy qilish uchun amalga oshiriladigan yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Kalitli so‘zlar: Tannarx, Tannarx buxgalteriya hisobi, kosting, Tannarx menejmenti, boshqaruv hisobi

Xorijiy tajribalarida buxgalteriya hisobi ikkita tarkibiy qismdan, ya’ni moliyaviy hisob va boshqaruv hisobidan iborat ekanlagi qaydi qilingan. Jahon iqtisodiyotida resurslarga bo‘lgan taqchillik boshqaruv hisobining tarkibida o‘rganilib keligan tannarx buxgalteriya hisobini alohida ajratishga zaruriyat qilib qo‘ymoqda. Natijada, Boshqaruv hisobi tarkibida o‘rganilib kelinayotgan tannarx hisobi alohida fan tarmog‘i sifatida ajralib chiqmoqda.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini optimallashtirishga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun mahsulot tannarxi ko‘rsatkichi davlat ahamiyatidagi masala hisoblanadi. Tejamkorlikka erishmayotgan korxonalar, mahsulot tannarxi yuqori bo‘lgan korxonalar raqobatbordosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Shu bois, mahsulot tannarxi masalasi o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Biz doim mahsulot tannarxini qisqartirish, tannarxni optimallashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish to‘g‘risida ko‘p mulohaza qilamiz, lekin tannarxini hisoblash tartibi bo‘yicha etarli ma’lumotlarga ega emasmiz. Mamlakatimizda amalda bo‘lgan mahsulot tannarxini hisoblash tartibi hamda uslubiyoti innovatsion iqtisodiyot talablariga javob bermay qoldi. 1999 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan “Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqish va realizatsiya qilish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning tashkil topishi to‘g‘risida”gi Nizom qobul qilindi. Nizom qabul qilinganligiga 25 yil bo‘ldi. Tannarx hisobidagi keyingi yutuqlar, zamonaviy usullarni kiritish zaruriyati mavjud. Nizomni qayta tahrirda ishlab chiqish, uni xalqaro standartlardagi keyingi o‘zgartirishlarga muvofiqlashtirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, mahsulot tannarxi, uning shakllanishi, hisoblash tartibi, zamonaviy kosting tizimlari va ularning qo‘llanilishi, tannarxni qisqartirish va optimallashtirish masalalarini o‘rganadigan buxgalteriya hisobining alohida sohasi “Tannarx buxgalteriya hisobi” bo‘lishini taqozo qilmoqda. Dunyodagi nufuzli universitetlarida “Tannarx buxgalteriya hisobi” alohida fan tarmog‘i sifatida o‘qitilib kelmoqda. Shu bois, bizda ham oliy ta’lim muassasalari “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishida “Tannarx Buxgalteriya Hisobini” kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu fan tarmog‘ining ingliz tilidagi nomi **“Cost Accounting”** deb ataladi.

Biz sohadagi nufuzli darsliklarni o‘rganish asosida ushbu fan tarmog‘ida qamrab oladigan masalalar qatoriga quyidagi masalalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1-jadval)

1-jadval

Tannarx buxgalteriya hisobining masalalari[83]

Ingliz tilida	O‘zbek tilida
Tannarx Buxgalteriya Hisobi Fundamental Konsepti (Fundamental Cost Accounting Concepts)	
Cost Accounting Environment	Tannarx Buxgalteriya Hisobi Muhiti
Sost Flows and Concepts	Tannarx Oqimi va Konsepti
Cost Behavior	Tannarx Tabiati
An Introduction to Cost Terms and Purposes	Tannarx Atamlari va Maqsadlariga Kirish
Tannarx Elementlari Buxgalteriya Hisobi (Cost element accounting)	
Accounting for Materials	Materiallar Hisobi
Accounting for Labor Costs	Mehnat Xarajatlari Hisobi
Accounting for Manufacturing Overhead	Ustama Ishlab Chiqarish Xarajatlari Hisobi
Cost Allocation	Tannarxni taqsimlash
Mahsulot Kostingi (Product Costing)	
Job Order Costing	Buyurtmali Kosting
Process Costing	Jarayonli Kosting
Standard Costing	Standart Kosting
Cost Of Joint Products and By-Products	Qo‘shma va Ikkilamchi Mahsulot Tannarxi
Spoilage, Rework, and Scrap	Defekt mahsulotlar, Qayta ishlash va kamayishlar
Activity-Based Costing	Faoliyat kostingi
Inventory Management, Just-in-Time, and Simplified Costing Methods	Zaxiralar Menejmenti, Just-in-Time kostingi, Kostingning Soddalashtirilgan Metodlari
Flexible Budgets, Direct-Cost Variances, and Management Control	Moslashuvchan byudjetlar, Direct-Cost va Menejment nazorati
Tannarx Ma’lumotlaridan Boshqaruvda Foydalanish	
Relevant Costs and Alternative Choice Decisions	Relevant tannarxi va qarorlar alternativasini tanlash
Contribution Approach and Variable Costing	Kontributsiya yondashuvi va verieybl kosting
Absorption Costing	Abzarpshin kosting
Cost-Volume-Profit Analysis	Tannarx-Hajm-Foyda Tahlili
Pricing Decisions and Cost Management	Narx bo‘yicha qarorlar qabul qilish va Tannarx Menejmenti
Tools for Managerial Analysis	Boshqaruv tahlili uchun vositalar

Ushbu Tannarx buxgalteriya hisobi fanining tarkibini tahlil qilish asosida hamda amaliyotga joriy qilish nuqtai nazaridan quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Tannarx buxgalteriya hisobining boshqaruv tizimidagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish;

Tannarx buxgalteriya hisobining asosiy ob’ektlarini belgilab olish;

Tannarx buxgalteriya hisobi maqsadi va vazifalarini aniqlash;

[83] Нуфузли дарсликлар асосида муаллиф ишланмаси

Tannarx buxgalteriya hisobini korxonalarda tashkil etish masalasi;

Tannarx buxgalteriya hisobi tabiati, tannarx tavsifi va tasnifi, tannarx menejmenti masalalari;

Tannarx buxgalteriya hisobida tannarx elementlari, zamonaviy kosting tizimlari va ularning qo‘llanilishi;

Tannarx buxgalteriya hisobida tannarxning taqsimlanishi;

Tannarx ma’lumotlarini tahlil qilish va menejmentda foydalanish masalalari;

Tannarx Buxgalteriya hisobida moslashuvchan byudjetlar, standart kosting va farqlanishlar tahlili;

Tannarx buxgalteriya hisobi bo‘yicha nufuzli darsliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish va o‘quv materiallariga kiritish;

Tannarx buxgaldteriya hisobini “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga mustaqil fan sifatida kiritish.

Ushbu masalalarning Tannarx buxgalteriya hisobi bo‘yicha buxgalterlarda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Korxonalarda esa zamonaviy kosting tizimlarining qo‘llanilishi mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxini xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish, mahsulotlarning haqqoniy tannarxini aniqlash, tannarxni boshqarish hamda sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo‘ladi. Davlat darajasida ham standart qoidalariga muvofiq korxonalarda tannarxni hisoblash metodologiyasining joriy qilinishi korxonalar mahsulot tannarxini bir-biriga solishtirish, tannarxni optimallashtirish masalalarini nazorat qilib turish imkoniyatini beradi. Shu bois, Tannarx buxgalteriya hisobiga katta e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganimizda, Tannarx buxgalteriya hisobi zaruriyat tufayli boshqaruv buxgalteriya hisobidan ajralib chiqqan mustaqil fan tarmog‘i deb hisoblashga asoslar mavjud. Uning konseptual masalalari, tannarx elementlari hisobi, tannarxini taqsimlash, kosting tizimlari hamda tannarxga oid ma’lumotlardan boshqaruv tizimda foydalanishga doir masalalarni belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tannarx buxgalteriya hisobini o‘quv rejalariga kiritish, korxonalarda tashkil etilishi va uni o‘qitishga alohida ahamiyat qaratish lozim deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Cost Accounting A Managerial Emphasis Global Edition Fourteenth Edition. ISBN 978-0-13-210917-8 by Charles T. Horngren, Srikant M. Datar and Madhav V. Rajan, published by Pearson Education, publishing as Prentice Hall © 2012.// https://vera.staff.unri.ac.id/files/2015/11/Cost-Accounting-A-Managerial-Emphasis-by-Horngren-Datar-Rajan-14th-Global-Edition.pdf 14.11.2024

2. Cost Accountang. Lester E.Heitger and Serge Matulich. 1 December 1999 by Lester E. Heitger (Author), Serge Matulich (Author), P. Ogan (Author) // https://www.amazon.ae/Cost-Accounting-Lester-Heitger/dp/053881764X